



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

FILOLOGIK TADQIQOTLARNING YANGI BOSQICHI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR

III XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

2025-yil, 21-OKTABR

BUXORO – 2025

ANJUMAN DASTURIY QO'MITASI

- | | | |
|-----|----------------|--|
| 1. | B.B. Ma'murov | - Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, rais; |
| 2. | Z.M. Muqimov | - Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais muovini; |
| 3. | G.R. Akramova | - Ilmiy – tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, a'zo; |
| 4. | X.A. Xaitov | - Tillar fakulteti dekani, a'zo; |
| 6. | U.S.Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 7. | D.B.Axmedova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 8. | G.B.Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. | G.R.Mirxanova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. | R.A.Saidova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 11. | Y.U.Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 12. | Sh.Sh.Nizomova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 13. | N.H.Hojiyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 14. | M.U.Usmonova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. | N.A.Bafoyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. | N.O. Avazova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 17. | S.T. Latipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo |

ILMIY ANJUMANNING TASHKILIIY QO'MITASI

- | | | |
|-----|-----------------|---|
| 1. | M.M. Bafayev | - O'quv ishlari bo'yicha prorektor, rais; |
| 2. | M.L. Umedjanova | - Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, rais muovini; |
| 3. | U.S. Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 4. | F.R.Rustamov | Tillar fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari |
| 5. | L.F. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 6. | M.Y. Ro'ziyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 7. | Sh.M. Istamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 8. | M.B. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. | G.B. Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. | R.R. Xalilova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 11. | M.U. Usmonova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 12. | F.K. Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 13. | N.N. Mirjonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 14. | M.Y. Latifova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. | M.A. Tilavova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. | M.V. Jabborova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo. |

To'plam O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda "2025-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 496-sonli buyrug'i rejasida belgilangan tadbirlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Buxoro davlat pedagogika institutida o'tkazilgan "Filologik tadqiqotlarning yangi bosqichi: zamonaviy tendensiyalar va istiqbollar" mavzusidagi III xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tuzildi.

Mas'ul muharrir:

G.B. Rustamova - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Taqrizchilar:

D.S. O'rayeva - filologiya fanlari doktori, professor
F.S. Safarova - filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARIDA MA'NAVIY MUHITNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Xo'jaqulov Shokir Shukurilloevich,

IIV huzuridagi JIED 6-mintaqaviy hudud 20-son
JIEK Tezkor-qidiruv guruhi katta tezkor vakili, mayor

Annotatsiya. Ushbu maqolada jazonni ijro etish muassasalarida ma'naviy muhitni shakllantirish jarayoni pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilingan. Mahkumlarni ijtimoiy hayotga moslashtirishda ma'naviy tarbiya, ta'lim, madaniy-ma'rifiy faoliyat va psixologik yondashuvlarning o'рни hamda ularning o'zaro uyg'unligini yoritilgan. Tadqiqotda jazo tizimining insonparvarlik tamoyillarini kuchaytirish orqali mahkum shaxsining axloqiy qayta tiklanishi va ijtimoiy integratsiyasi ta'minlanishi asoslab beriladi. Shuningdek, ma'naviy muhitni shakllantirishda pedagoglarning, diniy-ma'rifiy tashkilotlarning hamkorligi va innovatsion ta'lim texnologiyalarining ahamiyati ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: jazo ijro etish tizimi, ma'naviy muhit, pedagogik yondashuv, reabilitatsiya, insonparvarlik, ma'naviy tarbiya, ijtimoiy moslashuv, axloqiy tiklanish.

Аннотация. В данной статье анализируется процесс формирования духовной среды в исправительных учреждениях с педагогической точки зрения. Отмечается роль духовного воспитания, образования, культурно-просветительской деятельности и психологических подходов в адаптации осужденных к общественной жизни и их взаимном согласии. Обосновывается обеспечение нравственной реабилитации и социальной интеграции осужденного путем укрепления гуманных принципов уголовно-исполнительной системы. Показана важность взаимодействия педагогов, религиозных и образовательных организаций и инновационных образовательных технологий в формировании духовной среды.

Ключевые слова: уголовно-исполнительная система, духовная среда, педагогический подход, реабилитация, гуманизм, духовное воспитание, социальная адаптация, нравственная реабилитация.

Abstract. This article analyzes the process of forming a spiritual environment in penal institutions from a pedagogical point of view. The role of spiritual upbringing, education, cultural and educational activities and psychological approaches in adapting prisoners to social life and their mutual harmony are highlighted. The study substantiates the provision of moral rehabilitation and social integration of the convict by strengthening the humane principles of the penal system. The importance of cooperation between educators, religious and educational organizations and innovative educational technologies in forming a spiritual environment is also shown.

Keywords: penal system, spiritual environment, pedagogical approach, rehabilitation, humanism, spiritual education, social adaptation, moral rehabilitation.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida ham, deyarli butun dunyo mamlakatlari qonunchilik sistemalarida ham har bir insonning avvalo, shaxsiy daxlsizligi, kim ekanligidan qat'iy-nazar uning yashash huquqiga egaligi belgilab qo'yilgan. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining birinchi yo'nalishi ham aynan "Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish" deb nomlanadi[1]. Demak, xalqparlik deganda, mamlakatimizdagi butun bir xalqimizning umumiy ijtimoiy himoyalanganligini tushunishimiz mumkin.

Bugungi kunda esa insonni tadqiq etishda yanada zamonaviy yondashuvlar shakllanmoqdaki, uning ma'naviy olamini takomillashtirish va shu orqali moddiy rivojlanishini ta'minlash masalasiga e'tibor qaratilmoqda. Ya'ni, har bir shaxsning ma'naviy barkamolligi, uning ideologik immunitetini mustahkamlashga, intellektual, ilmiy salohiyatini

rivojlanishiga olib kelishi anglab yetilmoqda. Bundan kelib chiqib, nafaqat sog'lom jamiyatda, balki, o'z yo'lidan adashgan, bilib- bilmay xatoga yo'l qo'ygan, aybdor deb e'lon qilingan mahkumlar orasida ham ma'naviy barqaror muhitni ta'minlanishi o'ta muhim hisoblanadi. Vaholanki, qanchadir muddatda jazoni ijro etish muassasalaridagi mahkumlar, albatta, jazo muddatini o'tab odatiy hayot tarziga qaytadi. Ana shu holatda ularning ma'naviy- axloqiy darajasi jamiyat a'zolariga zarar keltirmasligi, undan tashqari odatiy turmush tarziga moslashib ketishi, ularning xulq-atvor normalarida deviant elementlar kuzatilmasligi uchun ham ma'lum bir jazoni ijro etish muassasasidayoq, ularning qayta tarbiyalanishiga, ayniqsa, ma'naviy, ma'rifiy, axloqiy-estetik, mafkuraviy immunitetini shakllantirish hamda rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Jazoni ijro etish muassasalarida jazoni otayotgan mahkumlarning huquq va erkinliklari borasida halqaro miqyosda hamda mamlakatimizda asosan yuridik soha vakillari tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, R.M.Jilyayev, L.A.Pupisheva S.P.Brilyakov, yurtimiz olimlaridan esa, G'.Abdumajidov, Z.F.Inog'omjonova, G.Z.To'laganova, F.M.Muxitdinov, B.X.Po'latov, M.X.Rustamboyevlar mahkumlarning yuridik maqomi, qonunchilikdagi huquq va erkinliklari, salomatligi va xavfsizligining ta'minlanishi borasida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Shuni ta'kidlash o'rinliki, ma'naviyati yuksak insonning yovuzlikka moyilligi bo'lmaydi. Ma'naviyatni yuksaltirish uchun esa, u shakllanadigan muhit ham namunaviy darajada bo'lishi lozim. Ko'p holatlarda jazoni ijro etish muassasalarida birinchi marotaba tushib qolgan shaxslar yana qayta jinoyat sodir etsishga moyilligi ortadi. Aynan shu holatni oldini olish uchun ham, mahkumlarning nafaqat jazolanishiga, balki ularning yaxshilik tomon borishida, kelajagini ezgu amallar orqali davom ettirishiga ko'mak berish muhim ahamiyat kasb etadi. Keyingi yillarda mamlakatimizda sud-huquq tizimidagi islohotlar natijasida guvohi bo'ldikki, jazolashdan ko'ra kechirish, mehnatga yo'naltirish, sog'lom jamiyatga qabul qilish, yosh mahkumlarning ta'limiga e'tibor qaratish amaliyotlari qo'llanilmoqda. Va bu mamlakatdagi tinchlik, barqarorlik, o'zaro mehr-oqibatni yanada mustahkamlamoqda. Shu boisdan ham jazoni ijro etish muassasalarida, nafaqat mahkumlar, balki, muassasa xodimlarining ham ma'naviy-axloqiy darajasini yuksaltirish masalasi zarurat hisoblanadi.

Xulosa sifatida fikr yuritganda, inson qadrini yuksaltirish, avvalo, uni har tomonlama ma'naviy qo'llab-quvvatlash orqali amalga oshiriladi. Ayniqsa, jazoni ijro etish muassasalarida aynan ma'naviy-axloqiy muhitni shakllantirishga ehtiyoj yuqori ekanligidan kelib chiqqan holatda mazkur masalani falsafiy jihatdan tahlil etish, zamonaviy usul va vositalarni ishlab chiqib sohaga doir yangicha taklif- tavsiyalarni taqdim etishga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi PF-60-son Farmoni.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
3. To'laganov T. Reabilitatsion pedagogika asoslari. – T.: Fan va texnologiya, 2019.
4. Abdurahmonov A. Tuzatish pedagogikasi va psixologiyasi. – T.: O'zbekiston pedagogika nashriyoti, 2020.
5. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – T.: Adolat, 2024.
6. UNESCO. Education in Prisons: A Human Right and a Tool for Rehabilitation. – Paris: UNESCO Publishing, 2019.